



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OT SO‘Z TURKUMINI O‘QITISH METODIKASI

Samarqand davlat pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim

nazariyasi kafedrası assistenti

Saydulloyeva Shoxsanam

shoxsanamsaydulloyeva94@gmail.com

Samarqand davlat pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Sharifova Marjona Shokirovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili darslarida ot so‘z turkumini o‘rgatishning nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. So‘z turkumlarini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘llaniladigan metod va usullar tahlil qilingan. Shuningdek zamonaviy ta‘lim texnologiyalarining dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ot so‘z turkumi, atoqli otlar, turdosh otlar, metodika, boshlang‘ich ta‘lim, interfaol metodlar, nutq o‘stirish

Kirish

Bugungi kunda ta‘lim tizimida yosh avlodga sifatli bilim berish, ularning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Presidentimiz Sh. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, «Ta‘lim-tarbiya -- kelajak, hayot mamot masalasidir». Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini, xususan, ot so‘z turkumini o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.



Ot so‘z turkumi - shaxs, narsaning ma‘nolarini bildirib kim?, nima?, qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar. Otlar ma‘no xususiyatiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

1. Kishi nomlarini: Ahmad, Nilufar, Samir, Marjona, Aziza kabi;

2. O‘rin-joy nomlarini: Farg‘ona, Samarqand, Toshkent, maktab, shahar, qishloq, ko‘cha kabi;

3. Daraxt va o‘simlik nomlarini: majnuntol, terak, chinnigul, tog‘olcha, kashnich kabi;

4. Narsa-buyum nomlarini: kosa, cho‘mich, qoshiq, piyola, televizor, telefon, planshet kabi;

5. Vaqt-fasl nomlarini: qish, yoz, kuz, bahor, kun, tun, daqiqa, lahza, soniya, mart, may, aprel, iyun, dekabr kabi;

6. Voqea-hodis nomlarini: urush, majlis, dars, to‘fon, zilzila kabi;

7. Yer va osmon jismlari nomlarini: yer, tuproq, tog‘, tosh, yulduz, kabi;

8. Mavhum tushunchalarni: sevgi, baxt, omad, tinchlik, sadoqat, mehr, ma‘rifat, orzu kabilarni bildiradi.

Kim? so‘rog‘i shaxsni bildiruvchi so‘zlarga, *nima?* so‘rog‘i narsa-buyumni bildiruvchi so‘zlarga, *qayer?* so‘rog‘i joy nomini bildiruvchi so‘zlarga beriladi.

Otlarning morfologik xususiyatiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

1)son (birlik va ko‘plik son) ma‘nosini bildiradi: kitob- birlik sonda, kitoblar-ko‘plik sonda;

2)kelishik ma‘nosini bildiradi: kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan kabi;

3) egalik ma‘nosini bildiradi: kitobim, ruchkam, kitobing, ruchkang, kitobi, ruchkasi kabi;

4) kichaytirish, erkalash shakllariga ega: onajon, qo‘zichoq, kitobcha, qizaloq kabi;

5) yasaliş tizimiga ega: gulchi, paxtakor, qisqich, to‘shak, to‘plam kabi.



Otlar ma'no va grammatik xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) atoqli otlar

2) turdosh otlar

Atoqli otlar deb bir turdagi shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyta-jarayon kabilarning umumiy nomidan birining ajratib olingan nomini bildiruvchi otlarga aytiladi. Misol uchun: Alisher Navoiy, Orol dengizi, Mustaqillik bayrami, Olapar Baroq kabilar.

Turdosh otlar deb bir turdagi shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyta-jarayon kabilarning umumiy nomlarini bildiruvchi otlarga aytiladi. Misol uchun: ota, uka, aka, o'roq, kishi, ketmon, paxtazor, choyxona kabilar.

“Ot” mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1–2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi.

Ko'rgazmali metod: bolalar vizual materiallar orqali mavzuni yaxshi o'zlashtiradi. Masalan, rasmlar, kartochkalar va jadvallar yordamida otlarni tushuntirish mumkin. Mashq: o'quvchilarga turli rasmlar berilib, ulardagi narsalar nomlarini aytish so'raladi.

Bingo metodi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linishadi. Ularga topshiriq beriladi va kim birinchi topshiriqni bajarsa “Bingo” deb aytadi. Topshiriqda bolalarga otlar va boshqa so'z turkumdan so'zlar yozilishi kerak bo'ladi.

Otlar bilan gap tuzishda berilgan otlar asosida gap tuzish vazifasi bajariladi.



«Sarguzashtli o‘qish va yozish» metodi. O‘quvchilar so‘zlarni o‘rganishda «sayohat» qilishadi. Har bir darsda ular yangi so‘zlarni o‘ziga xos tarqatilgan xaritalar yordamida o‘rganadilar. Misol uchun, o‘quvchilar biror yangi so‘zni o‘rganishdan oldin, u so‘z bilan bog‘liq tasvirlar, kinolar yoki hikoyalar orqali «sayohat» qilishadi. Keyin, o‘qish yoki yozish mashqlarida o‘sha so‘zlarni ishlatishlari kerak.

Bu metod bo‘yicha quyidagicha topshiriqni berish mumkin. Rasmdagi ertakni o‘qing. Ertakdagi ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni so‘roqlar yordamida aniqlang (3-sinf “Ona tili” darsligi).



Gulnora Turolova

Kim? Nima? didaktik o‘yini metodikasi. Kim? Nima? o‘yini boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumini o‘qitishda qo‘llaniladigan eng samarali didaktik o‘yinlardan biridir. Ushbu o‘yin orqali o‘quvchilar otlarni kim? va nima? so‘roqlari asosida farqlashni, jonli va jonsiz narsalarni ajratishni o‘rganadilar.

Parametr	Tavsif
O‘yin turi	Didaktik, guruhli, individual
Qo‘llaniladigan sinf	1-sinf (2-4 sinfdan takrorlash uchun)



Davomiyligi	10-15 daqiqa
Shakli	Sinfda, guruhlarda, juftlikda, yakka tartibda

O‘yin bosqichlari

O‘qituvchi o‘yindan oldin o‘quvchilarni mavzuga qiziqtirishi kerak. Keling bir-birimizga qaraymiz. Men kimman? (O‘qituvchi)- «Kim?» Bu nima? (stol)- «Nima?»»

O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘yin qoidalari bilan tanishtiradi. O‘quvchilarga birma-bir rasmlarni ko‘rsatadi O‘quvchilar «Kim?» yoki «Nima?» deb so‘roq berishadi.

1. O‘qituvchi rasmlarni tez-tez ko‘rsatadi. (reaksiyani tekshirish)
2. Xato qilgan o‘quvchini muloyimlik bilan to‘g‘rilaydi.
3. O‘qituvchi: «Nega bunday deb o‘ylaysiz?»- deb so‘raydi.

O‘yin orqali o‘quvchilar qiziqish bilan darsda qatnashadilar, jonli va jonsiz narsalarni farqlashni o‘rganadilar, «kim?», «nima?» so‘roqlarini to‘g‘ri qo‘laydilar, guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Xulosa

Boshlang‘ich sinflarda «Ot» so‘z turkumini o‘qitishda didaktik o‘yinlar, interfaol metodlar va ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishga zamin yaratadi. Ayniqsa «Kim? Nima?», «Sehrlı qopcha» kabi o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘ynab o‘rgangan holda otlarni oson farqlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, elektron darsliklar, taqdimot, onlayn testlar orqali o‘qitish darsning samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Boshlang‘ich sinflarda “Ot” so‘z turkumini o‘qitishda o‘qituvchining metodik mahorati, turli interfaol usullardan unumli foydalanish, o‘quvchilarning yosh psixologik



xususiyatlarini hisobga olgan holda mavzuni bosqichma-bosqich, tizimli va izchil o'qitishi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardir. Kelgusida ushbu metodikani yanada takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitish boshlang'ich sinf o'quvchilarning savodxonligini oshirish va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi majta ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektordagi nutqi.
2. Nargiza Erkaboyeva - O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. "YOSH KUCH» nashriyoti. Toshkent-2023 yil, 245-bet.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi - Toshkent «NOSIR» nashriyoti. 2009 yil, 248-bet.